# KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHDA "MAHALLABAY" ISHLASH TIZIMI SAMARADORLIGI TAHLILI

**Abdusalimov Jahongir Feruz O'G'Li**
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot fakulteti talabalari*
**Javmanov Jamshed Abdusamatovich**
**Uralov Baxtiyor Maxmudovich**
**Narziyeva Guzal Baxtiyorovna**
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi assistentlari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kambag'allikni bartaraf etishda Narpey tumanida "Mahallabay" ishlash tizimi samaradorligi, tumani bo'yicha aholini kasb-hunarga o'qitish va ishga joylashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-maydagi "O'zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 252-sonli qaroriga asosan ajratilgan subsidiyalar to'g'risida ma'lumotlar o'rganib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Mahallabay, kasb-hunarga o'qitish, obod va fayzli mahalla, boshqaruv ofisi.*

**Аннотация:** *В данной статье рассмотрена эффективность системы работы «Махаллабая» в Нарпайском районе по ликвидации бедности, проводимая работа по профессиональной подготовке и трудоустройству населения в районе, а также постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан. от 11 мая 2022 года «Республика Узбекистан Субсидии выделяются на основании решения № 252 об утверждении положения о порядке выделения субсидий из средств фонда привлечения населения к предпринимательству Агентства по развитию добрососедства» Изучена информация о труде и предпринимательстве Министерства экономического развития и борьбы с бедностью.*

**Ключевые слова:** *Махаллабай, профессиональная подготовка, благополучный микрорайон, офис управления.*

**Abstract:** *This article examines the effectiveness of the "Mahallabay" system of work in the Narpeysky district in eliminating poverty, the ongoing work on vocational training and employment of the population in the region, as well as the resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. dated May 11, 2022 "Republic of Uzbekistan Subsidies are allocated on the basis of decision No. 252 on the approval of the regulations on the procedure for allocating subsidies from the fund for attracting the population to entrepreneurship of the Neighborhood Development Agency" Information on labor and entrepreneurship of the Ministry of Economic Development and Poverty Alleviation was studied.*

**Key words:** *Microdistrict, vocational training, prosperous and prosperous microdistrict, management office.*

Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan mahallabay va fuqarobay ish uslublari ayni damda aholi murojaatlari va jamiyatdagi ko‘plab muammolarni bartaraf etishda jamiyatimizdagi barcha sohalar uchun eng samarali yo‘l ekanligi ko‘rsatmoqda. Rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardoshlik xususiyatini oshirib borishning ijtimoiy sharti - boshlang‘ich bo‘g‘inlardagi og‘riqli nuqtalarni aniqlash va uni bartaraf etishda jamoaviy yondashuvlarni tashkil etish hisoblanadi.

Obod va fayzli mahalla - yurt ko‘rki. Mahallalar ravnaqi mamlakatimiz taraqqiyoti, yorug‘ kelajagimizning mustahkam kafolati, poydevoridir. Shu ma‘noda, davlatimiz rahbari raisligida 2021-yil 1-mart kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida mahalla institutini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning qiyofasini tubdan yaxshilashga qaratilgan ko‘plab yangi tashabbuslar ilgari surilib, aniq vazifalar belgilab berilgani nafaqat mahallalar, balki yurtimiz hayotiga daxldor tarixiy voqea bo‘ldi. Ushbu yig‘ilishda berilgan topshiriqlarga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-martdagi 152-sonli “Mahallabay” ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va aholining tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori orqali mamalakatimizdagi har bir mahalla har bir xonadonda alohida amaliy ishlar amalga oshirilishini belgilab berdi.

Mahallabay ishlash tizimi murakkab jarayon bo‘lishiga qaramasdan, unda har bir insonning dardini tinglash, uning qismatini tubdan o‘zgartirish, jamiyat taraqqiyotini iqtisodiy o‘sishlar bilangina emas, balki aholining o‘z hayotidan mamnunligi bilan o‘lchash kabi mezonlar mavjud. Darhaqiqat, mahalladagi mavjud muammolar va aholining kundalik masalalarini hal etish birgina mahalla tizimi xodimlari tomonidan bartaraf etish imkonsiz. Shu sababli bu jarayonda har bir soha mas’ullarining ishtiroki va aralashuvi muhim jihatdir. Joylarda olib borilayotgan mahallabay ishlash mexanizmining ham muhim asosini ana shu tamoyil – barcha soha vakillarining hamjihat bo‘lib, hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashishi tushuniladi.

Mahallabay ishlash, bu - barcha soha mutasaddilarining bir musht bo‘lib, mahallalardagi muammolar, aholi turmushidagi muhim masalalarni birgalikda hal etishning yangicha mexanizmidir.

“Mahallabay” ishlash tizimining asosiy yo‘nalishlar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

-aholida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga oid qiziqish va intilishlarini aniqlash va ularning mazkur faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishga qaratilgan o‘quv kurslarini tashkil etish.

Mazkur o‘quv kurslarini tashkil etishga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda nodavlat ta’lim muassasalarini jalb qilish;

-yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishlarini amalga oshirishlari uchun amaliy yordam ko‘rsatish orqali kambag‘allikni qisqartirish. Natijada, ularning o‘zini-o‘zi band qilishiga erishish;

-banklar mahallalardagi aholining tadbirkorlik intilishlarini ro‘yobga chiqarishda kreditlardan foydalanishlari uchun biznes-rejalarni ishlab chiqishda maslahatlar berish, zarur biznes axborotlarni berib borish;

-mahallarning “o‘sish nuqta”larini aniqlash, aholining mazkur o‘sish nuqtalari asosida yangi tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, mavjud tadbirkorlik subyektlari kooperatsiyalarini yo‘lga qo‘yish;

-hududlarda aholi tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo‘ladigan shart-sharoitlarni yaratish, mavjud to‘siqlarni to‘lig‘icha bartaraf etish orqali aholining tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali daromadga ega bo‘lishlarini ta’minlash.[1]

“Mahallabay” ishlash tizimiga asosan aholida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan kasbga o‘rgatish (o‘qitish) tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va nodavlat ta’lim tashkilotlarini keng jalb qilish ko‘zda tutilgan. Mahallalardagi yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishda amaliy yordam ko‘rsatish orqali kambag‘allikni qisqartirish, aholining bandligini ta’minlash masalalari ham ushbu tizimning mohiyatini o‘zida ifodalaydi.

“Mahallabay” ishlash tizimida har bir mahallada:

1. Har bir xonadonning daromad manbalari, mavjud shaxsiy tomorqa xo‘jaligidan foydalanishda holatini “xonadonbay” tartibda o‘rganiladi;

2. Xonadonlardagi har bir mehnatga layoqatli, ishsiz kishi bo‘yicha “fuqarobay” tartibda qiziqish va intilishlari, mavjud salohiyati baholanadi;

3. Har bir fuqaro qiziqish va intilishlarini amalga oshirish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish va uni “boshqaruv ofisi”ga yo‘naltirish orqali aniq maqsadli ko‘maklashish;

4. “Fuqarobay” tartibda ishlab chiqilgan loyihalarning amalga oshirilishi jarayonini muntazam monitoring qilib borish;

5. Mahallalardagi mavjud foydalanilmayotgan bino va yer maydonlaridan samarali foydalanishga erishish;

6. Mahallalardagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi muammolarni o‘rganish, uni hal etishga ko‘maklashish maqsadida loyihalar ishlab chiqish va uning yechimi bo‘yicha “boshqaruv ofisi”ga takliflar kiritish vazifasi yuklatilgan.[2]

Tizimni yanada isloh qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-son farmoni va 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.

Quyidagilar agentlikning asosiy vazifalari etib belgilandi:

---

[1] http://www.wsrjournal.com/index.php/new/issue/view/19/11 107-108 - bet

[2] http://www.wsrjournal.com/index.php/new/issue/view/19/11 108-109 - bet

-respublikada tadbirkorlikni va mahallalarni iqtisodiy rivojlantirish borasida yagona davlat siyosatini yuritish;

-mahallabay ishlashning vertikal tizimi asosida aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va o'qitish hamda o'zini o'zi band qilish faoliyatiga yo'naltirish;

-vakolatli davlat organlari va tashkilotlari hamda mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilarining (keyingi o'rinlarda - hokim yordamchilari) faoliyatini muvofiqlashtirish;

-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda tadbirkorlikni muhim drayverga aylantirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-mahalliy hokimliklar bilan birga hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish;

-xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash loyihalarini amalga oshirish yuzasidan o'zaro hamkorlikni ta'minlash.[3]

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tarkibiga o'tkazilib agentlik tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi tashkil etildi. Bundan tashqari, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta'sis etildi. Ushbu lavozimga qabul qilingan hokim yordamchilari tumanda 2022-yilda sezilarli darajada ishlarni amalga oshirdi. Jumladan,

Narpay tumanida 2022-yilda ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish borasida olib borilgan ishlar to'g'risida
MA'LUMOT[4]

(1-jadval)

| № | Tuman | Doimiy ishga htirilgan ·) | Jamoat ishlariga htirilgan (nafar) | Mavsumiy ishga htirilgan (nafar) | PQ-4742 ga asosan o'zi band qilgan (nafar) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Narpay | 5177 | 216 | 8595 | 10796 |

Ko'rinib turibdiki 2022-yilda Narpay tumanida doimiy ishga joylashtirliganlar soni 5177 nafarni, jamoat ishlariga joylashtirilganlar 216 nafarni, mavsumiy ioshga joylashtirilganlar 8595 nafarni hamda PQ-4742 bo'yicha 10 796 nafar kishining bandligi ta;minlanganligini ko'rishimiz mumkin.

2022-yilda Narpay tumani bo'yicha aholini ishga joylashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida

---

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori 1-qism

[4] Online-mahalla.uz platformasidan olingan 01.01.2023

MA'LUMOT[5]

(2-jadval)

| № | Kompleks nomi | ishga joylashtirildi | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | I-chorak | II-<br>ık | III-<br>ık | IV-chorak | Jami |
| | | fakt | fakt | fakt | fakt | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1 | Hududiy investitsiya loyihalari ıiga | 5 | 14 | 1 | 0 | 20 |
| 2 | Yirik savdo va xizmat koʻrsatish azlarini tashkil etish hisobiga | 1 | 7 | 5 | 0 | 13 |
| 3 | Yoʻllar boʻyida amalga ılayotgan loyihalar hisobiga | 1 | 2 | 0 | 0 | 3 |
| 4 | Ajratilgan imtiyozli kredit ıgʻlari hisobiga | 9 | 2 | 1 | 0 | 12 |
| 5 | Mahallalarda 21 turdagi zaruriy ıt shaxobchalarini tashkil etish ıiga | 27 | 110 | 21 | 2 | 160 |
| 6 | "Yangi Oʻzbekiston" massivlarida ıtlar sohasini rivojlantirish | 1 | 0 | 17 | 9 | 27 |
| 7 | Koʻp qavatli uy joylarning ıati va yer toʻlalarida xizmatlar ıatishni, xizmat obyektlarini tashkil | 0 | 0 | 18 | 0 | 18 |
| 8 | Ijtimoiy sohadagi xizmatlarni ıntirish | 117 | 12 | 2 | 0 | 131 |
| 9 | Agro xizmatlarni tashkil etish | 3 | 74 | 21 | 0 | 98 |
| 10 | Yirik investitsiya loyihalari ıda xizmatlar sohasini rivojlantirish | 0 | 1 | 0 | 0 | 1 |
| 11 | Transport xizmatlarini tashkil | 0 | 1 | 1 | 0 | 2 |
| 12 | Koʻngil ochar koʻchalar, tunu-ishlaydigan savdo va xizmatlarni ıl etish | 1 | 0 | 0 | 0 | 1 |
| 13 | Chegara oldi hududlarda ıtlarni rivojlantirish | | | | | |
| 14 | Yangi xizmatlarni tashkil etish | 2 | 13 | 11 | 0 | 26 |
| 15 | Kasb hunarga va tadbirkorlikka ısh orqali fuqarolarni bandligini ınlash | 99 | 7 | 0 | 0 | 106 |
| 16 | Xizmatlar sohasida tashkil ın YATT va yuridik shaxslar ıiga yaratilgan yangi ish oʻrinlari | 21 | 141 | 5 | 0 | 167 |
| 17 | Haq toʻlanadigan jamoat ishiga ıhtirish | 20 | 85 | 77 | 0 | 182 |
| 18 | Shaxsiy tomorqasiga bandlik ıarmasidan subsidiya ajratish | | | | | |

[5] Online-mahalla.uz platformasidan olingan 01.01.2023

| № | Kompleks nomi | ishga joylashtirildi | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | I-chorak | II-<br>ık | III-<br>ık | IV-chorak | Jami |
| | | fakt | fakt | fakt | fakt | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 19 | Kooperativlarga a'zo bo'lish va diya ajratish | 0 | 0 | 2 | 0 | 2 |
| 20 | Kasb-hunarga o'qitish azlarida yoshlarni o'qitish | | | | | |
| 21 | Ishsizlik nafaqasi tayinlash | | | | | |
| 22 | Tadbirkor sifatida ro'yhatdan n yoshlarga subsidiya (to'lov) h | | | | | |
| 23 | Hokimliklar tomonidan langan ish o'rniga ishga htirish | 281 | 1 | 0 | 0 | 282 |
| 24 | Vakansiya ish o'rinlariga ishga joylashtirish | 30 | 91 | 153 | 0 | 274 |
| 25 | Legalizatsiya | 550 | 1 945 | 40 | 0 | 2 535 |
| 26 | O'zini-o'zi band qilish | 1 | 57 | 52 | 0 | 110 |
| 27 | Hunarmand | 139 | 72 | 0 | 0 | 211 |
| 28 | Qo'shimcha aniqlanadigan manba | 0 | 0 | 2 | 0 | 2 |
| 29 | Oilaviy tadbirkorlik dasturi loyihalari hisobiga | 0 | 6 | 0 | 0 | 6 |
| 30 | Turizm xizmatlarini rivojlantirish | 0 | 1 | 0 | 0 | 1 |
| 31 | Loyiha qidiruv ishlari | 5 | 13 | 0 | 0 | 18 |
| 32 | Geologiya ishlari | | | | | |
| 33 | Muxandislik kommunikatsiya ishlari | 8 | 1 | 0 | 0 | 9 |
| 34 | Suv qurilish obyektlari | 3 | 6 | 0 | 0 | 9 |
| 35 | Yo'l qurilish obyektlari | 0 | 30 | 0 | 0 | 30 |
| 36 | Ijtimoiy soha obyektlari | 38 | 162 | 3 | 0 | 203 |
| 37 | Invest Sanoat | 7 | 31 | 173 | 60 | 271 |
| 38 | Invest Qishloq xo'jaligi | 7 | 17 | 36 | 22 | 82 |
| 39 | Invest Xizmat ko'rsatish | 3 | 23 | 106 | 174 | 306 |
| 40 | Yangi tashkil etiladigan g'allachilik va meva-sabzavotchilik klasterlarida | 0 | 0 | 0 | 2 | 2 |
| 41 | Mavjud paxtachilik, g'allachilik, meva-sabzavotchilik klasterlarda | 1 | 50 | 0 | 0 | 51 |
| 42 | Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari | 372 | 753 | 1 088 | 3 | 2 216 |

| № | Kompleks nomi | ishga joylashtirildi | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | I-chorak | II- k | III- k | IV-chorak | Jami |
| | | fakt | fakt | fakt | fakt | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 43 | Dehqon xo‘jaligi uchun 0,1 dan 1 gektargacha beriladigan maydonlarda | 848 | 1 284 | 1 | 0 | 2 133 |
| 44 | Takroriy ekin uchun ajratiladigan maydonda | 4 | 14 | 2 | 0 | 20 |
| 45 | Pillachilik va jun sanoatini rivojlantirish | 970 | 3 523 | 56 | 0 | 4 549 |
| 46 | Turizm sohasida yaratiladigan doimiy va mavsumiy ish o‘rni | 22 | 326 | 3 | 3 | 354 |
| 47 | Madaniyat va kino sohasida yaratiladigan, doimiy va mavsumiy ish o‘rni | 8 | 175 | 0 | 0 | 183 |
| 48 | Urgut EIZ | 1 | 0 | 2 | 0 | 3 |
| 49 | Viloyat KSZ | 2 | 6 | 9 | 0 | 17 |
| 50 | Sport sohasida yaratiladigan, doimiy va mavsumiy ish o‘rni | 9 | 7 | 0 | 0 | 16 |
| Jami: | | 3616 | 9063 | 1908 | 275 | 14862 |

Narpay tumani bo‘yicha aholini ishga joylashtirish bo‘yicha 2022-yilning 4 ta choragida jami 50 ta komplekslarga jami 14862 nafar ishsiz fuqarolar doimiy ishlarga joylashtirilgan. Bu komplekslarga sanoat korxonalari, xizmat ko‘rsatish ob’yektlari, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalar kabi korxonalarga ishga joylashtirilgan. Jumladan, birinchi chorakda 3616 nafar fuqaro, ikkinchi chorakda 9063 nafar fuqaro, uchinchi chorakda 1908 nafar hamda to‘rtinchi chorakda 275 nafar fuqarolarning bandligi ta’minlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

2022-yilda Narpay tumani bo‘yicha aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida (mahalla kesimida) MA’LUMOT[6]

(3-jadval)

| № | Mahalla | O‘qishga ltiril-ganlar | shundan | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Kasb- maktab- | Savdo t palatasi | Tadbirkorlik va s oliy maktab | Xotin- qo‘mitasi | Nodavlat muassasasi |
| jami: | | 1 502 | 239 | 150 | 60 | 782 | 271 |

[6] Online-mahalla.uz platformasidan olingan 01.01.2023

| № | Mahalla | O'qishga ltiril-ganlar | shundan | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Kasb-maktab- | Savdo t palatasi | Tadbirkorlik va s oliy maktab | Xotin-qo'mitasi | Nodavlat muassasasi |
| 1 | Alisher Navoiy | 8 | 4 | 1 | 1 | 0 | 2 |
| 2 | Amir Temur | 8 | 5 | 0 | 1 | 2 | 0 |
| 3 | Ahillik | 11 | 3 | 0 | 1 | 1 | 6 |
| 4 | Barkamol | 10 | 1 | 0 | 2 | 2 | 5 |
| 5 | Baxt | 19 | 5 | 0 | 1 | 13 | 0 |
| 6 | Beklar | 130 | 2 | 0 | 1 | 127 | 0 |
| 7 | Birlik | 78 | 3 | 2 | 1 | 21 | 51 |
| 8 | Bolg'ali | 14 | 1 | 1 | 2 | 4 | 6 |
| 9 | Bo'ston | 3 | 1 | 0 | 1 | 0 | 1 |
| 10 | Guliston | 35 | 12 | 5 | 1 | 6 | 11 |
| 11 | Dedan | 16 | 3 | 3 | 1 | 6 | 3 |
| 12 | Do'stlik | 32 | 2 | 5 | 1 | 22 | 2 |
| 13 | Zirabuloq | 30 | 5 | 2 | 1 | 15 | 7 |
| 14 | Iymon | 18 | 6 | 8 | 1 | 3 | 0 |
| 15 | Ipak yo'li | 20 | 2 | 3 | 1 | 14 | 0 |
| 16 | Islomobod | 31 | 6 | 5 | 1 | 17 | 2 |
| 17 | Islom shoir | 35 | 3 | 9 | 0 | 22 | 1 |
| 18 | Istiqlol | 21 | 3 | 1 | 0 | 17 | 0 |
| 19 | Ko'k ota | 17 | 5 | 2 | 1 | 6 | 3 |
| 20 | Qoziyoqli | 37 | 0 | 0 | 1 | 35 | 1 |
| 21 | Qozikent | 27 | 5 | 1 | 1 | 20 | 0 |
| 22 | Mang'it | 17 | 4 | 4 | 2 | 1 | 6 |
| 23 | Muqumiy | 15 | 7 | 0 | 1 | 2 | 5 |
| 24 | Mustaqillik | 4 | 2 | 1 | 1 | 0 | 0 |
| 25 | Mushkent | 31 | 3 | 6 | 2 | 17 | 3 |
| 26 | Navro'z | 21 | 7 | 0 | 1 | 11 | 2 |
| 27 | Narpay | 39 | 22 | 2 | 1 | 2 | 12 |
| 28 | Nog'oraxona | 11 | 8 | 0 | 0 | 0 | 3 |
| 29 | No'g'ay | 7 | 0 | 4 | 1 | 0 | 2 |
| 30 | Obihayot | 137 | 2 | 14 | 1 | 120 | 0 |
| 31 | Oq oltin | 50 | 18 | 9 | 1 | 14 | 8 |
| 32 | Oqtosh | 29 | 1 | 6 | 2 | 2 | 18 |
| 33 | Olti o'g'il | 48 | 1 | 8 | 1 | 30 | 8 |
| 34 | Ravot olchin | 12 | 0 | 6 | 1 | 5 | 0 |
| 35 | Salovat | 13 | 5 | 1 | 1 | 6 | 0 |
| 36 | Sarbozor | 17 | 7 | 7 | 1 | 2 | 0 |
| 37 | Sohibkor | 20 | 0 | 2 | 1 | 3 | 14 |
| 38 | Tepa | 24 | 2 | 4 | 1 | 13 | 4 |
| 39 | Tepaqo'rg'on | 27 | 3 | 2 | 1 | 21 | 0 |
| 40 | Tinchlik | 11 | 8 | 0 | 1 | 0 | 2 |
| 41 | Tortuvli | 8 | 2 | 0 | 1 | 1 | 4 |

| № | Mahalla | O‘qishga ltiril-ganlar | shundan | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Kasb-maktab- | Savdo t palatasi | Tadbirkorlik va s oliy maktab | Xotin-qo‘mitasi | Nodavlat ı muassasasi |
| 42 | Totkent | 14 | 2 | 9 | 1 | 1 | 1 |
| 43 | Toshko‘prik | 10 | 5 | 3 | 1 | 0 | 1 |
| 44 | Turon | 13 | 2 | 1 | 1 | 8 | 1 |
| 45 | O‘zbekiston | 17 | 11 | 0 | 1 | 4 | 1 |
| 46 | O‘zbekkenti | 3 | 2 | 0 | 1 | 0 | 0 |
| 47 | Umid | 15 | 4 | 2 | 1 | 8 | 0 |
| 48 | Farovon | 20 | 7 | 0 | 1 | 11 | 1 |
| 49 | Xalqobod | 8 | 0 | 0 | 1 | 5 | 2 |
| 50 | Xo‘jakarzon | 28 | 2 | 0 | 1 | 25 | 0 |
| 51 | Xo‘jaqo‘rg‘on | 26 | 2 | 0 | 1 | 21 | 2 |
| 52 | Haqiqat | 8 | 5 | 0 | 1 | 2 | 0 |
| 53 | Chaykal | 16 | 0 | 3 | 1 | 2 | 10 |
| 54 | Charxin | 123 | 1 | 1 | 1 | 66 | 54 |
| 55 | Chorbog‘ | 20 | 4 | 0 | 1 | 15 | 0 |
| 56 | Yangi ariq | 19 | 1 | 7 | 2 | 4 | 5 |

Narpay tumani bo‘yicha aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarga e’tibor beradigan bo‘lsak 2022-yilda tumandagi 57 ta mahalla kesimida yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilganidek jami 1 502 nafar kishi kasb-hunarga o‘qitildi. Jumladan, fuqarolar kasb-hunar maktablarida 239 nafar, Savdo sanoat platasi qoshidagi tadbirkorlikka o‘qitish markazlarida 150 nafar, Tadbirkolik va biznes oliy maktabida 60 nafar, Xotinqizlar qo‘mitasi qoshidagi maktablarda 782 nafar hamda nodavlat ta’lim muassasalarida 271 nafari o‘qtilib kasb-xunar egasi aylanishiga ko‘mak berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-maydagi “O‘zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 252-sonli qaroriga asosan ajratilgan subsidiyalar to‘g‘risida MA’LUMOT[7]

(4-jadval)

| № | Subsidiya turi | soni | So‘mmasi (mln.so‘m) |
|---|---|---|---|
| 1. | Yengil konstruksiyali issiqxonalar o‘rnatish subsidiya | X | X |
| 2. | Sug‘orish vositalari xarid qilish uchun subsidiya | 1 | 3 |
| 3. | urug‘liklar va ko‘chatlar sotib olish uchun subsidiya | X | X |
| 4. | Ishsiz fuqarolar, kam ta;minlangan oilalar a’zolari va tashqi mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarga ularning bandligini ta’minlash maqsadida tashkil etiladigan qishloq xo‘jaligi kooperativlari ustav fondida | 19 | 57 |

[7] Online-mahalla.uz platformasidan olingan 01.01.2023

| | | | |
|---|---|---|---|
| | ulush sifatida kiritish uchun subsidiya | | |
| 5. | Tadbirkorlik va oʻz oʻzini band qilish faoliyatini boshlamoqchi boʻlgan ishsiz, shu jumladan “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun kerak boʻlgan asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya | 241 | 2 410 |
| 6. | Hunarmandlarning “Hunarmand” uyushmasiga a’zolik badali xarajatlari uchun a’zolik badali miqdorida subsidiya | 49 | 44,1 |
| Jami | | 310 | 2 514,1 |

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATIGA:


35. 2020-yil 26-martdagi “Iqtisodiyotni kambagʻallikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5975-sonli farmoni

36. 2020-yil 26-martda Oʻzbekiston Respublikasi Respublikasi “Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qarorlar

37. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.

38. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklasterlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.

39. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. International Journal Of Literature And Languages, 3(11), 14-19.

40. Аликулов, А. И. (1993). Совершенствование учета затрат на производство, переработку и исчисление себестоимости продукции хлопка-сырца в хлопковом комплексе (на примере хлопководческих хозяйств и хлопкоочистительных заводов Самаркандской области).

41. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1).

42. Tashmuratovich, E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 20-28.

43. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLASTERLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. MASTERS, 1(1), 112-118.

44. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. MASTERS, 1(1), 127-131.

45. Eshmuradov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.

46. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 712-721.

47. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. PEDAGOG, 6(4), 568-574.

48. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. Pedagog, 6(11), 237-246.

49. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 6(5), 26-38.

50. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 193-203.

51. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. PEDAGOG, 6(11), 247-254.

52. Жавманов, Ж. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЕВ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 306-318.

53. Kozimbek G'anijon o'g, M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA UNDAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 1-11.

54. Erkin o'g, D. S. M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALIKNI BARTARAF ETISH BO'YICHA ERISHILGAN NATIJALAR. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 12-19.

55. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., & Очилова, М. Т. (2024). ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 240-250.

56. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 232-239.

57. Abdusamatovich, J. J., Maxmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O'g'li, F. U. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI

RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 222-231.

58. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ КАК ФОРМА ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ САМОЗАНЯТОСТИ. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 369-378.

59. Очилова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 379-386.

60. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 387-395.

61. Ilyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. JournalNX, 453-456.

62. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.

63. Maxmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o'g'li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 7(1), 52-62.

64. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.

65. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1586-1592.

66. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.

67. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo 'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.

68. Гайбуллаев, Р. М., & Иштурдиев, Х. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ СУБЪЕКТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World of Science, 6(4), 345-351.

69. Абдигаппарович, И. Ҳ., & Юлдашев, Ш. Х. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 361-368.

70. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.